



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-martda Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 9 446,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 6,1 %ga o'sdi.

2019 yil yanvar-mart yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 3 254,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 %ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakillantirishda Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,4 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

Ko'rsatkichlar	Mlrd.so'm		2018 yil yanvar-martga nisbatan, %da
	yanvar-mart 2018 yil	yanvar-mart 2019 yil	
I. YaHM	6971,7	9446,0	106,1
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6543,4	8634,1	106,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	428,3	811,9	107,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6543,4	8634,1	106,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1322,7	1473,1	102,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3318,3	4794,5	108,8
sanoat	3087,7	4468,4	108,2
qurilish	230,6	326,2	117,1
Xizmatlar	1902,3	2366,4	104,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	549,5	650,8	104,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	466,1	519,0	102,0
boshqa xizmat tarmoqlari	886,7	1196,6	105,3

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 102,0 %, (YaHM tarkibidagi ulishi – 17,1 %), sanoat – 108,2 % (51,8 %), qurilish – 117,1 % (3,8 %), xizmatlar – 104,1 % (27,3 %).

2019 yil yanvar-martda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 91,4 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 8,6 %ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 3,1 % punktga kamaydi va hisobot yilida 17,1 %ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 4,9 % punktga o'sdi va 55,6 %ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 27,3 %ni tashkil etdi va 2018 yil yanvar-mart (29,1 %) bilan taqqoslanganda 1,8 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-mart



2019 yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,5 %ni (2018 yil yanvar-mart – 8,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,0 %ni (7,1 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 13,8 %ni (13,6 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2018 yil
yanvar-mart



2019 yil
yanvar-mart




- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

YaHM o'sish sur'atiga xizmatlar sohasining ta'siri 1,2 f.p. tashkil etdi. Ushbu sohada qo'shilgan qiymatning 4,1 % ga o'sishi kuzatildi. Shundan, tashish va saqlash, axborot va aloqa 2,0 % ga va boshqa xizmatlar 5,3 % ga o'sdi.

Qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 17,1 % ga osdi. YaHM ning mutloq o'sishi qurilish tarmog'ining ijobiy hissasi 0,6 f.p. darajasida baholandi.

2019 yil yanvar-mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2,0 % darajasida ijobiy o'sish sur'ati qayd etildi. Mazkur tarmoqning YaHM mutloq o'sish sur'atiga ta'siri 0,4 f.p. ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-martda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi



2019 yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2018 yil yanvar-martdagi narxlarga nisbatan 127,7 foizni tashkil etadi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari mahsulotga sof soliqlarda – 176,6 % va sanoat tarmog'ida – 133,8 % qayd etildi.

Viloyatning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indeksleri qurilishda – 120,8 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 109,2 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 113,9 %, tashish va saqlash, axborot va aloqada – 109,2 %, boshqa xizmatlarda – 128,2 % qayd etildi.

2019 yil yanvar-martda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi



Toshkent viloyati Statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul:
Sh. Bekpo'latov
Tel.: (0371) 230-86-57